



TIBBIY MADANIYAT VA SHIFOKOR NUTQI
MEDICAL CULTURE AND PHYSICIAN'S SPEECH
МЕДИЦИНСКАЯ КУЛЬТУРА И РЕЧЬ ВРАЧА

*Muallif: **Abdinabiyeva Rahima Abdirahmon qizi***

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

2-son Davolash ishi fakulteti 1-kurs talabasi

E-mail: ajtoshkent@gmail.com

Telefon raqam: +998 91-466-50-08

*Ilmiy Rahbar: **Avezova Anajon Ko'paysin qizi***

1-son O'zbek va Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada tibbiy madaniyat va shifokor nutqining ahamiyati, bemor bilan muloqot jarayonidagi psixologik va axloqiy tamoyillar, shuningdek, deontologiyaning zamonaviy tibbiyotdagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Shifokorning nutq madaniyati bemorning ruhiy holati, davolanish natijasi hamda sog'ayish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy tibbiy manbalar, jumladan Abu Ali ibn Sino va E.Y. Qosimov kabi allomalarning asarlarida shifokorlik odobi haqida bayon etilgan fikrlar zamonaviy tibbiyot nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar:

tibbiy madaniyat, shifokor nutqi, bemor psixologiyasi, deontologiya, bioetika, muloqot.



Annotation

This article explores the importance of medical culture and doctors' speech, focusing on the psychological and ethical principles of communication between doctors and patients. It analyzes how the doctor's language and tone affect the patient's emotional state and the effectiveness of treatment. The study also refers to classical medical sources, including the works of Abu Ali Ibn Sina and E.Y. Qosimov, examining their views on medical ethics in the context of modern medicine.

Keywords:

medical culture, doctor's speech, patient psychology, deontology, bioethics, communication.

Аннотация

В данной статье рассматривается значение медицинской культуры и речи врача, а также психологические и этические аспекты общения между врачом и пациентом. Анализируется влияние речевого поведения врача на эмоциональное состояние пациента и эффективность лечения. Особое внимание уделяется идеям Абу Али ибн Сины и Е.Й. Касимова о врачебной этике с позиции современной медицины.

Ключевые слова:

медицинская культура, речь врача, психология пациента, деонтология, биоэтика, общение.

Tibbiyot nafaqat ilm-fan, balki yuksak insoniy qadriyatlar asosida shakllanadigan sohadir. Shifokor har kuni inson hayoti, sog'lig'i va ruhiy holati bilan yuzma-yuz keladi. Shu sababli tibbiyot xodimidan nafaqat chuqur bilim, balki yuksak madaniyat, axloqiy poklik, nutq madaniyati va mas'uliyat talab etiladi. Har bir so'z, har bir ohang, hatto shifokorning yuz ifodasi ham bemor uchun muhim



ahamiyatga ega. Tibbiy madaniyat — bu shifokorning kasbiy burchini qanday ado etishida, bemorga qanday munosabatda bo‘lishida, uning dardini qanchalik tushunishida namoyon bo‘ladi. Shifokorlik faqat davolash emas, balki ruhni yengillashtirish, umid uyg‘otish, ishonchni mustahkamlash san’atidir. O‘zbekistonda tibbiy deontologiya tamoyillari qadimdan shakllanib kelgan. Sharq tabobatining buyuk namoyandasi Abu Ali ibn Sino “Shifokor avvalo inson qalbini davolashi kerak” deb bejiz aytmagan. Zero, bemorning sog‘ayishida ruhiy tahlil, shifokor so‘zining iliqligi va samimiy yondashuv muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda tibbiyotning rivojlanishi bilan bir qatorda, tibbiy etika va deontologiya masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy tibbiy madaniyat bemor bilan shifokor o‘rtasidagi muloqotni yangicha, insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishni talab etadi. Chunki sog‘lom jamiyat, eng avvalo, inson qadri yuksak baholangan jamiyatdir.

Tibbiy madaniyat — bu shifokorning kasbiy mahorati, ma’naviy fazilatlari va insoniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etuvchi tushuncha. U nafaqat tibbiy bilim va malakani, balki bemorga, uning ruhiy holatiga, oilasiga bo‘lgan munosabatni ham belgilaydi. Tibbiyotda “shifokor so‘zi — davo, beparvoligi esa kasallik” degan qadimiy hikmat bejiz aytilmagan. Chunki shifokor nutqi, ohangi, hatto nigohi bemor uchun kuchli ta’sir vositasidir. Shifokor madaniyati uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1. Kasbiy madaniyat – tibbiy bilim, malaka, davolash usullarini to‘g‘ri qo‘llash;
2. Axloqiy madaniyat – bemorga hurmat, e’tibor, shafqat, sabr va samimiyat bilan yondashish;
3. Nutq madaniyati – so‘zning maqsadli, ehtiyotkor, bemor ruhiyatiga mos ishlatilishi.



Bugungi kunda shifokorning nutqi bemor bilan muloqotda eng muhim vositaga aylangan. Har bir soʻz bemorning psixologik holatiga taʼsir qiladi. Shuning uchun shifokor nutqining ohangi, ifodasi va mazmuni professional etikaning ajralmas qismidir. Tibbiy madaniyat darajasi shifokorning bemorga nisbatan ichki masʼuliyati bilan belgilanadi. Bemorni faqat kasallik sifatida emas, balki inson sifatida koʻra bilish — bu haqiqiy tibbiy madaniyatning yuksak belgisi hisoblanadi.

Tibbiy muloqotning markazida — soʻz turadi. Shifokorning har bir soʻzi ruhiy tahlil va psixoterapiyaning bir qismidir. Inson miyasida emotsional holat, ishonch va qoʻrquv hissi aynan nutq orqali shakllanadi. Shuning uchun shifokor soʻzi davo jarayonining birinchi bosqichi hisoblanadi. Bemor shifokor bilan muloqotda oʻzini himoyalangan, eʼtirof etilgan, tinglangan holda his etishi zarur. Aks holda, u ruhiy tazyiqqa tushadi, davolanishga ishonchi kamayadi. Masalan, depressiya, yurak kasalliklari, onkologik yoki surunkali ogʻriqlarga chalingan bemorlar bilan notoʻgʻri ohangda gaplashish, ularning sogʻayish jarayonini sekinlashtiradi. Bu esa ilmiy tadqiqotlarda ham isbotlangan. E.Y. Qosimov oʻzining “Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot sanʼati” asarida shunday yozadi: “Agar vrach bemor bilan til topishmasa, eng kuchli dorilar ham foydasiz boʻlib qoladi.” Shifokor nutqi — bu davo vositasi. Toʻgʻri soʻz, samimiy ohang, bemorning ruhiyatini yengillashtiruvchi murojaat — ham jismoniy, ham maʼnaviy sogʻayishga xizmat qiladi.

Shifokor nutqining asosiy tamoyillari:

- Tushunarli va sodda tilda izoh berish;
- Ijobiy ruhda gapirish, umid uygʻotish;
- Ogʻriqli mavzularni ehtiyotkorlik bilan tilga olish;
- Bemorni hurmat bilan tinglash va javob berish;



- Yalang‘och haqiqatdan ko‘ra, foydali haqiqatni yetkazish.

Bu jihatlar, ayniqsa, onkologiya, pediatriya, psixiatriya kabi sohalarda nihoyatda muhimdir. Har bir so‘z shifo berishi yoki bemorni ruhiy jarohatlab qo‘yishi mumkin.

Deontologiya, ya’ni kishining xulqi, odobi haqidagi tushuncha 16-asrning boshlarida ingliz faylasufi va iqtisodchisi I. Bentam tomonidan taomilga kiritilgan. Deontologiya — tibbiy etikaning yuragi. U shifokor burchi, halolligi va insoniylik tamoyillariga asoslanadi. “Deon” — burch, “logos” — ta’limot degani. Shifokor uchun eng oliy qadriyat — bu bemorning hayoti. Shuning uchun vrach sir saqlashi, bemorning sha’ni va huquqlarini himoya qilishi shart. Tibbiyot deontologiyasi — tibbiyot xodimlarining kasbga aloqador etikasi, doridarmon, umuman davoning ta’sirini oshirishga karatilgan xulqatvor taomillari. Tibbiyot deontologiyasiga oid ma’lumotlar uzoq tarixga ega. Aslida, Tibbiyot deontologiyasi keng falsafiy mazmunga ega bo‘lib, bir qancha yo‘nalishlardan iborat:

- shifokor bilan bemor o‘rtasidagi;
- shifokor bilan bemorning yaqin kishilari o‘rtasidagi munosabat;
- shifokorning hamkasblari bilan munosabati va hokazo.

Tibbiyot deontologiyasiga vrachning sir saqlashi, bemorning hayoti va sog‘lig‘i uchun tibbiyot xodimining javobgarligi, tibbiyot xodimlarining o‘zaro munosabati masalalari va boshqa kiradi. Tibbiyot deontologiyasiga muvofiq, tibbiyot xodimi bemorga katta e’tibor berishi, uning sog‘lig‘ini tiklash yoki azobini yengillatish uchun butun bilimini sarflashi, bemorga uning sog‘lig‘i haqidagi faqat foyda keltira oladigan ma’lumotlarni aytishi, bemorning vrach bilan sirdosh bo‘lishiga erishuvi zarur. Bemorning kasalligi haqida uning ishtirokida hamkasblari bilan so‘zlashishi yaramaydi. Tibbiyot deontologiyasining tibbiyot amaliyotida to‘g‘ri joriy qilinishi, shifokorning ongi, saviyasi, madaniyati, dunyoqarashi, bilim



va qaysi jamiyatda yashayotganligi bilan chambarchas bog‘liq. Kishilik jamiyatining turli davrlarida deontologik munosabatlar turlicha kechgan, u zamon talabiga mos ravishda o‘zgarib borgan.

Deontologiya shifokordan uch narsani talab qiladi:

1. Fidokorlik – bemor manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yish;
2. Mas’uliyat – har bir qaror uchun javobgarlikni his etish;
3. Sir saqlash – bemorning holatini oshkor etmaslik.

Bemor bilan suhbatda ehtiyotkorlik va axloqiy me’yorlar muhim. Masalan, kasallikning og‘ir turi haqida bemorga to‘liq ma’lumot berishdan avval, uning ruhiy tayyorgarligi inobatga olinadi. Shifokorning nozik yondashuvi ko‘p hollarda hayot-mamot masalasida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bioetika esa — inson sha’ni va huquqini hurmat qilish tamoyillariga asoslanadi. 1972-yilda AQShda qabul qilingan “axborot kelishuvchanligi” prinsipi ham aynan shunga asoslanadi: bemor o‘z kasalligi va davolanish usuli haqida to‘liq axborot olishi, lekin qarorni o‘zi ongli ravishda qabul qilishi kerak. Shu bilan birga, vrach so‘zining samimiyligi, mehribonlik va iliqlik unsuri bioetikaning asosiy ko‘rinishidir. Bemor bilan muloqotda “ruhiy davo” — har qanday dori-darmondan kuchliroq ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tibbiyot tarixida shifokor va bemor muloqotining bir necha modeli mavjud bo‘lgan. Bu modellarning har biri ma’lum davr axloqiy talablari asosida shakllangan:

1. Gippokrat modeli (zarar yetkazmaslik tamoyili) — “Bemorga zarar keltirma” qoidasi asosida qurilgan. Shifokor har qanday muolajada bemorga ruhiy va jismoniy zarar yetkazmasligi lozim.



2. Parasels modeli (otalarcha g'amxo'rlik) — shifokor bemorni o'z farzandi kabi asrashi, unga mehr bilan yondashishi kerak.

3. Deontologiya modeli (burchga sadoqat) — shifokor kim bo'lishidan qat'i nazar, har bir bemorga halol, fidokorona muolaja o'tkazishi zarur.

4. Bioetika modeli (inson sha'ni va huquqini hurmat qilish) — bemorning roziligi, axborotga egaligi va muomala jarayonidagi insonparvarlikni ifodalaydi.

Bu modellarning barchasi zamonaviy tibbiyotning asosi bo'lib qolgan. Shifokor nutqi, xulqi va madaniyati — ularning uyg'un ifodasidir.

Sharq tabobatining buyuk allomasi Abu Ali ibn Sino “shifokorning so'zi — dardni yengillashtiruvchi marhamat” deb bejiz aytmagan. U shifokordan quyidagi fazilatlarni talab qilgan:

- Saxiylik, sabr, halollik, muloyimlik;
- Kamtarinlik, ozodalikka rioya qilish;
- Bemorni tinglash va unga umid bag'ishlash.

Shifokorning tashqi ko'rinishi, ohangi, hatto xatti-harakatlari ham davolash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bemor shifokorda samimiyatni sezsa, unga ishonch bilan ergashadi, bu esa sog'ayishning yarmini tashkil etadi. Zamonaviy tibbiyotda “psixoterapevtik muloqot” degan atama bejiz qo'llanmaydi. Har bir shifokor, ayniqsa, og'ir kasalliklar bilan shug'ullanuvchi mutaxassis, bemor ruhiyatiga ta'sir etuvchi so'z va ohangni to'g'ri tanlashi kerak.

Tibbiyot inson hayotining eng nozik va mas'uliyatli sohasi bo'lib, unda nafaqat bilim, balki yuksak madaniyat, odob, axloq va so'z san'ati muhim rol o'ynaydi. Shifokorning bemor bilan muloqoti — bu oddiy suhbat emas, balki davo jarayonining birinchi bosqichidir. Inson ruhi va tana sog'lig'i o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganidek, shifokor nutqi ham bemorning ruhiy muvozanatini tiklashda



beqiyos ahamiyat kasb etadi. Tibbiy madaniyatning yuksak darajasi shifokor shaxsiyatida namoyon bo'ladi. Shifokor bemorning og'rig'ini faqat jismoniy kasallik sifatida emas, balki ruhiy holat sifatida ham ko'ra olishi zarur. Bemorni diqqat bilan tinglash, unga samimiy so'z aytish, ishonch bag'ishlash — bu tibbiy deontologiyaning eng muhim tamoyillaridir. Zamonaviy tibbiyotda shifokor nutqi va muloqot madaniyati haqida o'ylash, ularni o'qitish va amaliyotda to'g'ri qo'llash zarurati ortib bormoqda. Chunki bemor bilan to'g'ri muloqot qilgan shifokor ko'pincha eng murakkab kasalliklarni ham yengib o'tishda muvaffaqiyat qozonadi. Aksincha, sovuq va beparvo munosabat, nojo'ya so'z yoki shafqatsiz ohang davolash natijasini pasaytiradi, ba'zan bemorda stress yoki depressiyani kuchaytiradi. Deontologiya, bioetika, nutq madaniyati, psixologik tahlil — bularning barchasi yagona maqsadga xizmat qiladi: inson sha'ni, sog'ligi va hayotini himoya qilish. Shifokor o'z kasbini nafaqat mehnat manbai, balki insoniylik burchi deb bilmog'i lozim. Sharq tabobatining buyuk allomasi Abu Ali ibn Sino ta'biri bilan aytganda: "Shifokor — bu tabiatning yordamchisi, inson tanasiga emas, ruhiga ham davo beruvchi zotdir." Shu bois, tibbiy madaniyat va shifokor nutqining uyg'unligi har bir bemorning sog'ayish yo'lida eng ishonchli kalitdir. Insonparvarlik, samimiyat va hurmat asosidagi shifokor-bemor munosabatlari sog'lom jamiyat poydevorini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov E.Y. "Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati", Toshkent, 2002.
2. Ibn Sino A.A. "Tib qonunlari", fors-tojik tili manbalari asosida.
3. Gippokrat. "Qasamyod" – qadimiy yunon tibbiy etika manbasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. "O'zbekiston shifokori qasamyodi", 1996.



5. Bentam I. “Deontology, or the Science of Morality”, London, 1834.
6. World Medical Association. “The International Code of Medical Ethics”, Geneva, 1949.
7. Rasulov A.A. “Tibbiyot deontologiyasi va bioetika asoslari”, Toshkent, 2018.
8. Turakulova N., Sattorova Z. “Tibbiy psixologiya va muloqot madaniyati”, Toshkent, 2020.
9. Eshmurodova D. “Zamonaviy tibbiyotda kommunikativ kompetensiya”, Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2021.
10. Qosimov E.Y., Karimov B.R. “Shifokor etikasining zamonaviy talqinlari”, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2015.